



## ZAMONAVIY TIJORAT BANKLAR FAOLIYATIDA VALYUTA RISKLARINING AHAMIYATI



**Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li**

Xorazm viloyati Xonqa tumani,  
Bank va moliya akademiyasi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy tijorat banklar faoliyatida valyuta risklarining ahamiyati shuningdek valyuta risklarining turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Keltirilgan ma'lumotlar asosida solishtirma tahlil amalga oshirilgan.

**Abstract.** This article provides information on the importance of currency risks in the activities of modern commercial banks, as well as the types of currency risks. A comparative analysis was carried out on the basis of the given data.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о значении валютных рисков в деятельности современных коммерческих банков, а также о видах валютных рисков. На основе приведенных данных был проведен сравнительный анализ.

**Kalit so'zlar.** Valyuta, valyuta risklari, valyuta kursi, tranzaksiya riski, iqtisodiy riski.

**Key words.** Currency, currency risks, exchange rate, transaction risk, economic risk.

**Ключевые слова.** Валюта, валютные риски, валютный курс, транзакционный риск, экономический риск.

### KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlardan asosiy maqsad shuki, davlat moliyaviy bozor munosabatlarni va aholi iqtisodini tiklashdan iboratdir. Bugungi kunda, bozor munosabatlari iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida ko'pgina islohotlar yuritilyapti va bu yuritilayotgan islohotlar natijasida tijorat banklarining davlat iqtisodiyotidagi o'rni tobora oshib bormoqda. 2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining tijorat banklar tizimlarini isloh qilish strategiyasi to'g'risidagi" PF-5992 sonli farmoni e'lon qilindi. [1].

Xususan, xalqaro standartlarga mos tushadigan va moliyaviy sohalarga xorijiy investitsiyalarni kiritish maqsadida huquqiy muhitni o'zida mujassamlashtirgan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Valyutalarini tartibga solish to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi yangilangan qonunlari va tamoyillari qabul qilindi.

Ushbu farmon tijorat banklari tizimini rivojlantirishning maqsadlarini, vazifalarini va ustuvor sohalarini, 2020-2025-yillarda tijorat banklar tizimlarini transformatsiyalash va

isloh etish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorlarini transformatsiyalash tajribalari asosida va moliya sohalaridagi jahon tendensiyalarining hisobga olingan holda ehtimoliy yechimlarini izlashi yo'llarini belgilab turadi. Bu bilan birga tijorat banklar sohalaridagi hozirgi holat tahlillari tijorat banklar sektorlarida davlatning yuqori darajadagi aralashuvlari, davlat ishtirokidagi tijorat banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachiliklarning quyi darajalari kabi tijorat banklari sektorlarini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolari mavjudligini ko'rib kelmoqdamiz.

Tijorat bank tizimlariga zamонавиј servislari yechimlar asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni ulkan joriy qilish, axborotlar xavfsizligini kerakli darajalarda ta'minlash, shuningdek moliyaviy xizmatlari ko'rsatishlarda inson omili ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha tezkor choralarни ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLLILI**

Tijorat banklarida risk tushunchasiga oid birqancha olimlarning tadqiqot ishlari va ilmiyi nazariyalari bilan yaqindan tanishib chiqildik. Jumladan MDH olimlari Mixaylova A.V., Rassadin V.E., Sedukova K.K. ta'kidlashicha, "Risk-bu havfning ma'lum bir ehtimoli qandaydir bir voqeа nafaqat o'z ichiga olishi mumkin salbiy natija ehtimoli, shuningdek ijobjiy natija ehtimoli natijasida paydo bo'ladigan va unga kim qaror qilganiga bog'liq jarayon" deb ta'rif bergen [2]. P.S. Rouz risklarga kengroq tushuncha berib, u bank risklarini quyidagi oltita asosiy turga ajratadi:

- kredit riski;
- foyda olmaslik riski;
- likvidlik riski;
- foiz riski;
- to'lay olmaslik riski;
- bozor (raqobat, talab va taklif, inflatsiya va h.k.) riski.

Bank uchun ikkinchi darajada bo'lgan risklar tarkibiga P.Rouz siyosiy, suiste'mol va valyuta risklarini kiritadi [3].

Shuningdek mahalliy olimlarimiz ham risk tushunchalariga turlicha ta'rif bergenlar. Jumladan S.S. Togayev "Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursini o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotishlari xavfi kiritiladi" deya ta'rif bergen [4].

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Valyuta risklarining mavjudligi — valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalar amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarni barpo etish orqali bank operatsiyalari bozori baynalmilallahuvi, shu jumladan, ular faoliyatini diversifikatsiyalash bilan bog'liq. Shu sababdan riskka bir qator omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Bularga misol qilib, geografik, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik va boshqa omillarni ko'rsatish mumkin. Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayriboshlash kurslari

o'zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalari amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi.

Valyuta risklari yuzaga kelishining asosiy sababi — valyuta kurslari o'zgarishi hisoblanadi. Bunday o'zgarishlar hamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat tuzilmalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina hollarda ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq va shu sababli kreditorlar va qarz oluvchilar, investorlar va chayqovchilar, hujalik sub'ektlari o'z bizneslarini milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyutalarda amalga oshirishni ma'qul ko'radilar.


Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursini o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotishlari xavfi kiritiladi.

Valyuta riskining uch turi o'z ichiga oladi:

1. Tranzaksiya riski - bu yurisdiktсиялар о'rtasida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda kompaniya duch keladigan xavf. Risk - bu bitimni amalga oshirishdan oldin valyuta kursining o'zgarishi. Asosan, tranzaksiya va hisob-kitob o'rtasidagi kechikish tranzaksiya xavfining manbai hisoblanadi. Tranzaksiya xavfini forward shartnomalari va optionslari yordamida kamaytirish mumkin.

2. Iqtisodiy riski, shuningdek, bashorat qilish xavfi sifatida ham tanilgan, bu kompaniyaning bozor qiymatiga valyuta kurslarining muqarrar ravishda o'zgarishi ta'siriga ta'sir qilish xavfi. Bunday xavf turi odatda geosiyosiy beqarorlik yoki hukumat qoidalari kabi makroiqtisodiy sharoitlar tomonidan yaratiladi.

3. Pul o'tkazishda yuzaga keladigan risk kompaniyaning bosh qarorgohi mamlakatda joylashgan, lekin chet el yurisdiktсияsida biznes yuritayotgan va kompaniyaning moliyaviy natijalari uning milliy valyutasida ko'rsatilgan tavakkalchilikni anglatadi. Agar kompaniya o'z aktivlari, majburiyatları yoki aktsiyalarining katta qismini chet el valyutasida ushlab tursa, tarjima xavfi yuqori bo'ladi (1-rasm).



**1-rasm. Valyuta riskining turlari**

Valyutani tartibga solish sohasidagi mavjud chora-tadbirlar ichki bozorni jahon bozorlaridagi raqobatga bardosh bera olmagan xorijiy mahsulotlarning endigina o'z ishlab chiqarishini qayta qurayotgan o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarga oqib kelishidan himoya qilishga qaratilgan. Valyutani tartibga solish shartlari, shu jumladan, konvertatsiya tartib-qoidasi ayni shunday mollarning ko'plab keltirilishiga to'sqinlik qiladi.

Bank tizimining joriy faoliyati davri moliyaviy tartibga soluvchining pul-kredit siyosati vektorining tez o'zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi. Ushbu vaziyatni hisobga olgan

holda, tijorat banklari rahbarlari kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish va innovatsion moliyaviy texnologiyalardan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan masalalarni hal qilishlari shart.

Zamonaviy bank faoliyatida valyuta risklari mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarbliji nafaqat milliy valyuta kursining beqarorligi, balki mamlakat moliya tizimidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq bo'lib, bu milliy moliyaviy xavfsizlikni shakllantirishga ta'sir qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muhim tarkibiy qismi xorijiy sheriklar bilan hisob-kitoblarda milliy valyutalarga o'tish bo'lib, bu bank segmentida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish uchun moliyaviy vositalardan kengroq foydalanish zarurligini taqozo etadi. Bundan tashqari, banklardagi majburiy zaxira talablari o'zgaradi. Biroq, milliy valyutalarda hisob-kitoblarga o'tish nafaqat valyuta kursining o'zgarishi xavfi bilan, balki mamlakatlar o'rtasidagi eksport-import munosabatlarining ekvivalentligi bilan ham bog'liq emas. O'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash uchun nafaqat tovarlar va xizmatlarning turlari va hajmini, balki O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarni taqdim etish uchun mahalliy tovarlari va xizmatlarini import qiluvchi mamlakatlarning potentsial imkoniyatlarini aniqlash kerak. Valyutani tartibga solish usullaridan oqilona davlat iqtisodiy siyosati bilan birgalikda samarali foydalanish tashqi omillarning salbiy ta'sirini kamaytiradi va davlatda iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston Respublikasi Markaziy binkining monetar siyosati o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimida Markaziy bankning pul-kredit va valyuta siyosatining iqtisodiyotga ta'siri kapitallarni eksport va import qilishni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Buning mazmuni milliy valyuta kursini barqaror saqlab turish bilan belgilanadi. Milliy valyuta kursini barqaror ushlab turish uchun esa, hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish topshirilgan. Shunday qilib, iqtisodiyotni monetary siyosat orqali tartibga solish jarayonlarini va unda Markaziy bankning tutgan o'rni va mavqeini tadqiq qilish, hozirgi vaqtida, O'zbekiston Respublikasi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining tijorat banklar tizimlarini isloh qilish strategiyasi to'g'risidagi" PF-5992 sonli farmoni. 13.05.2020 yil. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Михайлова А.В. Финансовые риски в системе обеспечения экономической безопасности / А.В. Михайлова, В.Э. Рассадин, К.К. Седукова // В сборнике: От научных идей к стратегии бизнес-развития сборник статей-презентаций научно исследовательских работ студентов, магистров, аспирантов, молодых ученых – участников Международной Межвузовской Студенческой конференции. 2018. С. 116-125/
3. Роуз П. С. Банковский менеджмент. – М.: Дело АТД. 1995, стр.142
4. S.S. Togayev. Bank risklari. O'quv qo'llanma. SamISI. Samarqand 2019 y. 222-bet.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

